

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat
Arxitektura –Qurilish Instituti**

**“Arxitektura” fakulteti
“Kasbiy ta'lim” kafedrasi**

Bitiruv malakaviy ishining

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu: Rangtasvirda Go'ri Amir maqbarasini tasvirlash va uni
o'qitish uslubi

**Kafedramudiri: dot.Raximov.A.Q
Raxbar: O'qit. Sultonova D. N.
Bitiruvchi: 401-KT(c) guruhi
talabasi Sultonmurodova Z**

Samarqand 2014

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ
АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

«Қурилишни бошқариш» факультети
« Касбий таълим » кафедраси

ТУШУНТИРИШ ХАТИ

Битирув малакавий ишининг мавзуси

Рангтасвирда Тўри Нимф маҳбараеини
тасвирлаш ва уни ўқитиш услуби.

Битирув малакавий ишини

бажарувчи толиб (а) Султонмуродова Зубайда
(Ф.И.Ш.)

Кафедра мудири доц. Рахмонов Н.В.
(Ф.И.Ш.)

Раҳбар доц. Султонова Д.Н.
(Ф.И.Ш.)

Маслаҳатчилар Атабаев К.
(Ф.И.Ш.)
Шахматов Н.Н.
(Ф.И.Ш.)

Султонмуродова
(Имзо)

Рахмонов
(Имзо)

Султонова
(Имзо)

Атабаев
(Имзо)
Шахматов
(Имзо)

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат Архитектура

Курилиш Институти

«Курилишни бошқариш» факултети

«Касб таълими» кафедраси

**БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШНИ БАЖАРИШ УЧУН
ТОПШИРИҚ**

Сулеймонмуродова Зубайда

(талабанинг фамилияси, исми, шарифи)

I. Битирув малакавий ишнинг мавзуси

Тангтасвирида
Тўри Амир мақбарасини тасвиридан ва уни
ўқитиш усули.

Институт буйича 2013 йил «28» 12 360-У сон буйруқ асосида тасдиқланган.

II. Битирув малакавий ишни бажариш учун маълумотлар

Тангтас-
вирида меъморий манзара ишдан бўйича кел-
тирилган маълумотлар тўғрисида

III. Тушунтириш хатида келтириладиган маълумотлар:

1. Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг таҳлили ва асослаш Тўғрисида
маълумотлар тўғрисида қилиб, мавзу асосида
ва битирув малакавий иш ретаси тузилади.

2. Битирув малакавий ишнинг назарий шакли ишланмалари Тангтасвирида
меъморий манзара ишдан асосари назарияси-
ни қўлади.

3. Битирув малакавий ишнинг амалий ишланмалари Мавзуга оид
эскизга керакли ўқитишда ишлов бериш.

4. Ўқув услубий қисми Мавзу бўйича дарс бериш ретасини тузиб
дарснинг меъорий ҳужжатларини ишдан чиқариш ва
замонавий ўқитиш технологияларини қўлади
дарс ўқитиш усулини яратиш.

5. Битирув малакавий иш бўйича хулоса қисми Талабанинг
битирув малакавий иш бўйича шажаси
хулосаси келтирилади.

6. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати Битирув малакавий ишнинг
бажариш тарафидан қўйилган адабиётлар
ва меъорий ҳужжатлар рўйхати келтирилади.

IV. Битирув малакавий ишнинг таркиби ва график қисми:

1. Тангтасвирида Тўри Амир мақбарасини тасвиридан.
Ўқитиш 60 см x 80 см.

2. Дарс тасвироти.

3. Дарс ўқитиш усули.

4.

V. Битирув малакавий ишнинг қисмлари бўйича маслаҳатчилар:

№	Битирув малакавий иш қисмлари	Бошланиши	Тугалланиши	Иш хажми %	Маслаҳатчилар	Имзо
1.	Мавзу бўйича маълумотлар, материаллар ва адабиётлар тўплаш уларни ўрганиш таҳлил қилиб, асослаш	13.01.2014 й.	31.01.2014 й.	5	Султонова Д.	
2.	Битирув малакавий иш мавзуси бўйича назарий шакли ишланмаларини ишлаб чиқиш.	01.02.2014 й.	28.02.2014 й.	15	Султонова Д.	
3.	Битирув малакавий иш мавзуси бўйича амалий шакл эскизларни бажариш.	01.03.2014 й.	25.03.2014 й.	20	Султонова Д.	
4.	Эскизларга асосан амалий шакл ишланмаларни яратиш.	26.03.2014 й.	26.04.2014 й.	30	Султонова Д.	
5.	Ўқув услубий қисмини ишлаб чиқиш	27.04.2014 й.	20.05.2014 й.	25	Ҳажимов А.	
6.	Тугалланган битирув малакавий ишни расмийлаштириш ва ҳимояга тайёргарлик куриш. Экология	21.05.2014 й.	16.06.2014 й.	5	Султонова Д. Ҳакаров Н.М.	

Изоҳ:

1. Битирув малакавий иш «Низом» га асосан бажарилади.
2. Хар бир топшириқда кўрсатилган муддат охирида рахбар ёки маслаҳатчи томонидан имзолангандан кейин навбатдаги қисмини бажаришга кафедра томонидан рухсат берилади.

VI. Топшириқ берилган сана 13.01.14

VII. Тугалланган Битирув малакавий ишни топшириш санаси 16.06.14.

Битирув малакавий иш раҳбари Султонова Д. Н.
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Топшириқ бажариш учун қабул қилинди Султонмуродова З.
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Кафедра мудири Ҳажимов А. Ғ.
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

MUNDARIJA:

Kirish.....	1 bet
I. Mavzuni asoslash.....	5 bet
a) Go'ri Amir maqbarasi.....	8 bet
b) Go'ri Amir maqbarasini rangtasvirda tasvirlash.....	16 bet
c) Ijodiy jarayon haqida.....	19 bet
II. Atrof muhit muxofazasi qismi	23 bet
III. Xayotiy faoliyat xavfsizligi.....	32 bet
IV. O'quv uslubiy qism.....	37 bet
Xulosa.....	69 bet
Adabiyotlar.....	72 bet

KIRISH

KIRISH

Har bir xalqning tarixi uning o'tmishi haqidagi xotirasidir. Xotira yorqinmi, mahzunmi, sharofli uni o'zgartirishning iloji yo'qdir. Har bir xalq tarixini boricha, hech him bir begona bo'yoqlarsiz, oshiqcha sharxlarsiz bilishi kerak. Agar o'tmishda buyuk bobolar, yorqin voqealari bo'lgan bo'lsa yangi avlodlar ular bilan faxrlanishi, ibrat olishi kerak. Agar tarixida nomus qilarli avlodlarning yuzini yerga qaratadigan voqealar bo'lsa, kelajak avlod ularni takrorlamaslik kerak. Boshqacha qilib aytganda tarix bizning o'tmishi va kelajak oldidagi holatimizni ko'rsatadigan oynadir.

Afsuski, sobiq ittifoqdir nomuslik bir yoqlama yondashish, uni yaxshi yomonga oq-qora ajratish qoidaga aylangan edi. Xalqimiz tarixini qaysi davrini qanday o'rganish, sobiq markazda kelgan goh ochiq, goh yopiq buyruqlar asosida amalga oshiriladi. Sobiq sovet davrining "yorqin kunlarni" yanada bo'rtirib ko'rsatish uchun o'tmishni zo'r berib qoraladik.

O'tmishimizda biror ezgulik yo'q edi. Biz inqilobga qador sovodsiz madaniyatsiz va qoloq edik" deya jar soldik. Bu paytda esa tariximiz jimgina soqov bo'lib, Turon tuprog'ida ajdodlarimiz yaratgan baqtriya, sug'd, xorazm, turk va arab imlolarida yaratgan bitiklarimiz, san'at asarlarimiz yotaverdi. Samarqand, Buxoro, Termiz, Shahrisabz va Xiva kabi ko'hna shaharlarimizdagi betakror, osmono'par obidalarni barpo qilishda ajdodlarimiz eng murakkab me'moriy o'lchamlarni ishlayganliklarini bilib ham biz o'tmishda savodsiz edik deya qulloq qilib turaverdik.

Ulug' ajdodlarimiz qabrlarini oyoq osti qildik, noyob asari-atiqalarimizni talon taroj qilishlarga yo'l qo'ydik. Sohibqiron Amir Temur nafaqat Turon va Xuroson, Eron balkim Ovropa xalqlari tarixida katta ijobiy xizmatlar borligini tasdiqlovchi dalil borligiga qaramasdan, o'tmishimizni Temuriylar davriga oid bosqichi faqat qonxo'rlikdan iborat undan biror ezgulikni axtarish befoyda degan tushunchani ongimizga joylashtirdilar. Natijada, Amir Temurning avlodlari ham o'z bobolarini qoralaydigan, unga nisbatan nafrat bilan qaraydigan bo'lib qoldilar. Lekin quyoshni biror nars bilan to'sib bo'lmaganidek Temuriylar tarixi va madaniyati ham barcha ziyolilardan ham yashirib bo'lmasdi.

Xayriyatki, mustaqilligimiz tufayli o'tmishimizga bo'lgan noxolis munosabat o'zgardi, xalqimiz o'z o'tmishini anglash sari qadam qo'ygan va buguni xamda ertasini o'z qo'liga oldi.

MAVZUNI ASOSLASH

MAVZUNI ASOSLASH

Go'zal va xamisha navqiron shaxrimiz Samarqand, o'zining betakror me'moriy obidalar bilan dunyo ahlini xayratga solib kelmoqda. Bu inshootlarning barchasini o'zining bezaku naqshlari bilan bir-biridan qolishmaydi.

Lekin o'zining azimliligi, haybatliligi va mahobati bilan bir maqbara tubdan ajralib turadi. U ham bo'lsa, G'ori Amir maqbarasidir.

Bitirub malakaviy ishni bajarishda Samarqand shahrining me'moriy obidalaridan biri rangtasvirda tasvirlashni niyat qilib qo'ygan edim.

Aynan Go'ri Amir maqbarasi o'zining go'zal arxitekturasi, ravshanliligi va ta'sirliligi bilan meni o'ziga jalb qildi.

Shu sababli rahbarim Sultanova D bilan maslahatlashgan xolda ana shu mavzuni tanlashga qaror qildim o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, mavzuni o'ta murakkab. Murakkab va o'ta ma'suliyatli bo'lgan ba mavzuni bajarish oson bo'lmaydi albatta. Lekin bu ishni bekamiko'st bajarishda ustozlardan olgan bilib va ko'nikmalarim qo'l keladi deb o'ylayman sayi harakatlarim buyuk ajdodlarimiz, sohibqiron Amir Temur hazratlarining ruhi poklarini shod aylashga qaratilgan desam mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki sohibqiron Amir Temur vatanimiz tarixida, o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti beqiyos xizmat ko'rsatgan shaxs. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda sifatida atirof etgan, ajdodlarni xotirlash ular ruhini shod etish biz yoshlarning muqaddas vorislik burchimiz hisoblanadi.

GO'RI AMIR MAQBARASI

O'z gumbaz ostida Turonning ulug' farzandlarini bag'riga bosib yotgan, muazzam Samarqand barpo qilingan o'rta asrlar me'morchiligining betakror va betimsol noyob durdonasi bo'lgan Temuriylar xilxonasining barpo qilinishi haqida ham olimlarimiz o'rtasida turli xil baxslar mavjud. Tarixiy manbalarda ma'lumki dastlab Amir Temurning Samarqandda o'ziga va yaqinlariga atab xilxona bunyod qilish niyatida bo'lmagan. Shu sababli, otasi, og'illari Mirzo Jahongiz va Umarshayxlarni Keshda dafn ettirgan, o'ziga ham u yerda xilxona bunyod qildirgan. Lekin Amir Temur Samarqandni dunyodagi eng go'zal shaharlardan biriga aylantirganidan so'ng bu yerda Temuriylarga atab ulkan xilxona yaratishni ham niyat qilgan. Shu sababli u bevaqt vafot etgan suyukli nabirasi, taxt vorisi Muhammad Sultonni Keshga, otasi Mirzo Jahongirni yoniga emas, Samarqandda dafn ettirishni va bu yerda xilxona qurishni buyurdi. Muhammad Sulton vafot etganida, Samarqandda maxsus xilxona yo'q edi. Temuriylar xonadoniga mansub yoshlar Shohizinda qabristoniga dafn etilar edi. Samarqandga olib kelingan

Muhammad Sultonning jasadini dastlab Shahzodaning o'zi tomonidan qurilgan xonaqoqga dafn etdilar. Tarixiy va arxiologik ma'lumotlarga qaraganda Muhammad Sulton tomonidan qurilgan xonaqoqga hozirgi Amir Temur xilxonasi yoniga joylashgan. Bu madrasa juda ko'rkam bo'lib, uning 28 xujrasi bo'lgan. Madrasada talabalar uchun darsxona va bu joyda dafn etganlarning ruhlariga Qur'on tilovat qilib turish uchun 10 ta qori ham istiqomad qilgan. Sharofiddin Ali Yozdiyning yozishicha safardan qaytib, suyukli nabirasining qabrini ziyorat qilish uchun Muhammad Sulton madrasasiga kelgan Amir Temur shu yerda, Shaxzoda uchun gumbazli maqbara bino qilishni buyurgan. Binoni sifatli g'ishtlar va marmardan ko'tarishib, gumbaz yuzasini oltin va lojuvordlar bilan ziynatlaganlar. Marxumni dafn etish uchun bino ostida Sardobasimon bino qurganlar. Amir Temur O'trorda qo'qqisidan vafot etganda, hali xilxona batamom bitmagan edi. Shuning uchun sohibquronning jasadini ham vaqtincha nabirasi yoniga xonaqoqga dafn etganlar. Xilxona batamom bitgandan so'ng, Temurning vaziyatiga ko'ra, Andaxoydan uning piri Mir Sayyid Barakaning jasadini olib kelishib, birin-ketin pirning Sohibqironning va Shaxzodaning jasadlari dafn etilgan Amir Temur va Muhammad Sultonlarning qabrlari ochilganidan qabrlarni tuzilishi, tobutlar bit xil ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu yerda xilxona etilgandan so'ng avvaldanoq qurilgan madrasa va xonaqoq o'z mavqeini yo'qota boshlagan. Tarixchi Malixonning yozishiga ko'ra, madrasa va xonaqoq XVII asrlardayoq vayrona xolatiga bo'lgan. Bugungi kunga kelib esa, bu yerda qachonlardir ko'kka bo'y cho'ib, shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan madrasa va xonaqoq tagzamini, ya'ni poydevori saqlanib qolgan xolos, Amir Temur xilxonasining ichiga 9 ta kishi dafn etilgan bo'lsa, uning xovlisiga esa Temuriylar xonadoniga oid 20 dan oshiq kishi dafn etilgan. Lekin shafqatsiz vaqt shamoli va to'zomlari natijasida bi qabrlar ustiga qo'yilgan marmar qabrtoshlar bugungi kunda xilxona hovlisida turubdi. Sohibqiron Amir Temur bobosining bunyodkorlik ishlarini davom ettirib yangi-yangi binolar qurdirdi. Bobosining xilxonasiga qayta ishlov berdi, ayrim o'zgartirishlar kiritdi. Xilxonaga Shoxrux, Mironshox va Ulug'bekdan so'ng boshqa odam dafn etilmadi.

Temuriylar saltanati inqirozi yuz bergach tarix saxnasiga ko'tarilgan. Shayboniylar Samarqanddagi obidalarga, jumladan Temuriylar xilxonasiga unchalik g'amxo'rlik qilmadilar. Oradan ancha vaqt o'tgach, xilxona boburiy shazoda, Shox Jahonning uchinchi o'g'li, Xindiston hukmdori Avrangzeb G'amxo'rlik ko'rsatdi. U buyuk bobkaloni yotgan xilxona ancha miqdorga mablag' jo'natdi. Ammo bu mablag'ning ancha qismi talon taroj qilinganligi uchun xilxonani ta'mirlashga kamgina qismi sarflandi. XVII-XIX asrlarga kelib, Turkistonda boshlanib ketgan o'zaro urushlar tufayli xalq nihoyatda qashshoqlashib ketdi. Tarixiy obidalar bilan hech kimning ishi bo'lmadi. Shu paytlarda Amir Temur xilxonasi gumbazi ustiga o'rnatilgan dumaloq sol oftindan quyilgan qubba ham og'irlandi. Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingach, bu yerdagi tarixiy obidalarning taqdirida ham anchayin o'zgarishlar yuz berdi. Yodgorliklarning eng noyob bo'laklariga boshqa qismlari uzoq uzoqlarga tashib ketdi. 1895-yilda N. Vasselovski boshchiligidagi ekspeditsiya a'zolari mahalliy

chor ma'murlari bilan kelishib, Temuriylar xilxonasining nafis bezakli naqshinkor eshigini Sankt-Peterburgga olib ketdilar.

Xilxonaning g'arbiy tomonidagi eshik ham o'g'irlab sotildi. Hozir u Londondagi Vintoriya va Albert muzayiga Saqlanayapdi. 1903-yili imperator Aleksandr III ning muzeyi uchun Temuriylar xilxonasining oynasidan bir qismi jo'natildi. 1905-yilda xilxona peshtoqidagi nafis yozuvli lavha o'g'irlandi va 1906-yilda Konstantinopolda o'n ming frankka sotildi.

Lavhada: "Jahongir Amir Temur Ko'ragonni qabri, xudo uni rahmat qilsin va abadiy jannatga musharraf bo'lsin" degan yozuv bitilgan. Hozirda u Rossiya davlat Ermitojida saqlanmoqda.

XX asrning 30-40-yillarida Turkistonning istiqboli va ozodligi yo'lida o'z jonlarini tikkan ko'pgina vatanparvarlar Turon sultoni, turkiylar davlatining qudratli quyoshi Amir Temur Ko'ragonning muqaddas qabri ustida qasam ichganlar. Ammo 1941-yilda Temuriylarning ruhlarini bezovta qilishga jurat qiluvchilar topildi. Birlari arbob birlari olib bo'lgan bu kimsalar sohibqiron qabrini ochib, uning ruhini bezovta qildi. Ikkinchi jahon urushidan yarador bo'lib qaytib kelgach ekspeditsiya qatnashchisi, antropolog 1941-yili Temur qabrini ochib, yozuv urush ruhini qabrdan chiqarib yuborgan ekanmiz, urush boshlanib ketdi. 1942-yilning oxirida Temur jasadini o'z joyiga qayta ko'mganimizdan so'ng urushda Sovet qo'shinlarining qo'li baland kela boshladi" – deb aytgan edi. Xayriyatki 1991-yilning kuziga kelib Amir Temurning yurti uzra yana erk quyoshi porladi. Bir asardan ziyod davom etgan istibdodan so'ng xalqimiz o'z o'tmishi va kelajagiga egalik qila boshladi. Shu tufayli sohibqiron Amir temur ham o'zining haqli qadrini topdi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov 1994-yilning dekabr oyiga vazirlar Mahkamasining "Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660-yilligini nishonlash haqidagi" qaroriga imzo chekdi. 1996-yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Bu qarorlar buyuk bobomizning tarixiy xizmatlarni munosib baxolaganligi bilan ham muhimdir.

Samarqanddagi Go'ri Amir xilxonasiga sohibqorin bobomiz piri, o'g'rillari va nabiralari bilan mangu uyquda yotibdilar. Yurtimizning uyqulari tinch bo'lsin, inshollo yuqorida ta'kidlab o'tganidek, rangtasivr turli janrlarga bo'linadi. Go'ri Amir maqbarasi rang tasvirning manzara janrida tasvirlandi. Syujet ifoda vositalari rasm va rang tasvir orqali ro'yobga chiqarildi. Rang tasvir asosi maxsus ishlov berilgan matodan iborat. Rang qatlami guashdan iborat, bir necha qatlamda bajarildi. Rang tasvirni saqlash maqsadida, uning ustidan yupqa lok qatlami berilgan. Go'ri Amir maqbarasini rangtasvirda tasvirlash. Avvalambor rangtasvir san'at haqida ma'lumot berib o'tsam.

Rangtasvir san'ati-qadimda so'nggi paleolit, ya'ni miloddan avvalgi 40-8 ming yilliklarda paydo bo'lgan. Rangtasvir asarlari asosan, Fransiyaning janubida, Ispaniyaning shimolida va O'rta Osiyo xududlarida saqlanib qolgan. Rangtasivr asarlari soz tuproqli bo'yoqlar qorakuya, pista ko'mir bilan ishlangan. Rasmlar tekis sharpa sifat (siluet) ayrimlarida esa neolit davrida ishlangan ibtidoiy rang tasvir asarida murakkab kompozitsiyalar, abstrokt tushunchalar shakllangan.

Quldorlik davrida rivojlangan texnik vositalarga boy obrazlar tizimi paydo bo'la boshagan.

Rangtasvir tasviriy san'at turi bo'lib, biron bir qattiq yuzada bo'yoqlar yordamida yaratiladigan badiiy asar hisoblanadi. Rangtasvir voqeylikni badiiy tasvirlash va talqil qilish voqelikni badiiy tasvirlash va talqin qilish tomoshabin fikri hamda tuyg'ulariga ta'sir etishning muhim vositasidir. U muhim ijtimoiy mazmun va rang-barang g'oyaviy vazifalarga ega, Rangtasvir asarining g'oyaviy mazmuni uning mavzu va syujetida mujassamlashadi. Asar syujetini rassom rangtasvirning ifoda vositalari orqali ro'yobga chiqaradi. Rangtasvirning ifoda vositalari kompozitsiya rasm, rang va ritm. Rangtasvir asarlarining asosi-yog'och, qog'oz, karton, maxsus ishlov beriladigan mato, shisha va metal. Rangtasvirning rang qatlami guash, moybo'yoq, kavarel, tempero. Rangtasvirning muhim tasviriy va ta'sir vositasi bu rang.

GO'RI AMIR MAQBARASINI RANGTASVIRDA TASVIRLASH

Rangtasvir asarini yaratishda, rang orqali rassom borliq yoki xayoliy dunyoni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi. Rassom makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini moddiylikni hajmi va fakturasini ko'rsatish, harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, xissiy kechinalarni tasvirlashi mumkin. Rangtasvirning tasviriy ifoda vositasi va ishlash uslubi ishlatiladigan rang qurollar xususiyati, rang eritgichlar, asosga bog'liq.

Rangtasvir-tasvir mavzusi va mazmuni yoʻanlishiga qarab bir qator janrlarga boʻlinadi. Animalistika, tarixiy janr, maishiy janr, badal janri, portret, manzara va natyurmort janrlari. Rangtasvir asarlari ishlanishini shartli ikki-yassi va xajmli fazoviy uslubga ajratish mumkin. Birinchi uslubda tasvir nursoya yordamida muhit bilan bogʻliq xolda tasvirlanadi.

Bunday asarlar rangga boy boʻlib, unda ranglarning barcha tuslanishlarini xis etish tushunchi nurning qaytgan rangini ham, qaytgan nurlarining tuslanishi va boshqa ranglar bilan boyishini koʻrish mumkin.

Rangtasvir asarlarida bu ikki uslub orasida qatʼiy chegara yoʻq, biri ikkinchisi toʻldirib turadi. Rangtasir asarlari oʻzining ishlanishi oʻrni, mazmuni, bajaradigan vazifasi, ishlanish uslubi va koʻrinishiga qarab monumental, bezak, dastgoh sanʼati dekoratsiya, miniatyura va boshqalarga boʻlinadi.


Yuqorida takodlab oʻtganidek, rangtasvir mazmuni va mazmun yoʻnalishiga qarab bir qator janrlarga boʻlinadi. Mening holimda rangtasvirning manzara janrida foydalanishga toʻgʻri keldi. Toʻgʻri meʼmoriy manzara hisoblanadi. Shahar markazida joylashganligi sabab, binoni oʻzini yaxlit holda tasvirlab boʻlmaydi. Shuning uchun bino shahar manzarasi fanida tasvirlandi.

Ijodiy jarayon haqida.


Goʻri Amir meʼmoriy obidasining rang tasvirda tasvirlashda, nusxa koʻchirish texnologiyasidan foydalanildi. Nusxa koʻchirish taxnologiyasi topiladi. Bundan farqli oʻlaroq man mavzuga asosan Goʻri Amir maqbarasining bir nechta fotonusxasini oldim. Keyin ijodiy jarayon ketma-ketligi qaydagi harakatlardan iborat boʻldi.

1. Birinchi novbatda kerakli oʻlchamdagi rasm yasab olindi.
2. Yasalgan romga maxsus mato tortildi.
3. Romga tortilgan mato emulsiya yordamida gruntlandi.
4. Fotonusxa kerakli oʻchamdagi ketaklarga boʻlib chiqildi.
5. Fotonusxa qalamtasvirda, kattalashtirilgan masshtabda, tayyor gruntlangan mato yuzasiga tushirildi.
6. Qalam tarxi surkalib ketmasligi uchun uning ustidan jigarrang boʻyoqni suyuqroq qilib kichkina moʻyqalamda yurgʻizib chiqildi.
7. Rang berish jarayonida tasvir tarxi buzilib ketmasligiga etʼibor berildi.
8. Avval kattaroq moʻyqalam ishlatilib, tasvir detallashtirib boshlagach, keyinroq moʻyqalamga oʻtildi.

Asar barcha koʻzda tutilgan talablar bajarilgach, nihoyasiga tekazildi va xoshiya rom bilan bazatildi.







ATROF MUHIT MUXOFAZASI QISMI

TABIATNI MUXOFAZA QILISH BORASIDA EKOLOGIK TA'LIM TARBIYANING YO'LLARI

Ekologik ta'lim tarbiyaning tub ma'nosi-bu tabiat va jamiyat o'rtasidagi doimiy birlik, ularni bir-birlariga bog'lovchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish, hayotga tatbiq qilish yo'li bilan tabiiy barqarorlikni saqlashdan iboratdir. Insoniyat jamiyatining yuksak darajada rivojlanishi fan texnika asosida qurilgan sanoat tarmoqlarini yuzaga keltirdi. Suv inshootlari, yangi yangi shahar qishloqlarning bunyod etilishi inson bilan tabiat o'rtasida yangi munosabatlarni vujudga keltirdi. Inson tabiatning tabiiy rivojlanish qonunlari va uning bir butun yaxlitligi, turg'unligini buzdi. Tabiat va uning asosiy elementlari bo'lmish suv, havoni zaharladi. Tabiatni ekologik barqarorligi, turg'unligi va uning tabiiy qonunlarning buzilishiga tabiatning kelajakdagi ekologik holati qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilmaslik sabab bo'ldi.

Ekologik bilim – bu tirik tabiat tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzasidagi tirik jonzorlar holati, ularning bir-birlari va atrof muhit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlari, tabiiy boyliklarning son va sifati, hajmi, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda yer yuzida inson qo'li yetmagan tabiatning biron-bir burchagi qolmadi. Faqat tropic o'rmonlar yuqori tog'li tumanlar. Arktika Antartika, kichik kichik maydonlarga inson qadami yetmagan bo'lishi mumkin. Hozirgi kunning eng dolzarb muommolaridan biri fan texnika yutuqlari asosida aholi orasida ekologik ta'lim tarbiya va madaniyatga oid bilimlarni oshirish yo'li bilan tabiat muxofazasi

tezlashtirishning turli choratadbirlarni ishlab chiqishdir. Bu borada mutaxasislar tayyorlashni har xil yo'llar bilan amalga oshirish kerak. Ekologik ta'lim tarbiya bu insonning tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik, axloq odob yuzaisdan axlqimizning taibatga nisbatan hurmat e'tibor bilan qaraydigan yaxshi urf odatlar, udumlari asosida yoshlarni tarbiyalash ularda tabiat, uning xilma-xil boyliklariga mehr-muhabbat uyg'otish, tejamkorlikka o'rgatish, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'u rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undash ularni qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir. Rkologik ta'lim-tarbiyaning maqsadi inson o'rab turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiiy boyligiga boylik, go'zalligiga go'zallik qo'shadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni yetishtirish va tarbiyalashdan iboratdir.

Ekologik ta'lim-tarbiyani mohiyati, vazifalari va yo'nalishlari. O'zbekiston jumhuriyat rahbariyati tomonidan chiqarilgan ko'p qarorlarda tabiat muxofazasida oid ishlarni kengaytirish va takomillashtirish hamda bu soha bo'yicha mutaxasislarni fan-texnika taraqqiyoti talabiga javob beradigan darajada tayyorlash ko'za tutilgan. Xalq xo'jaligining turli sohalari bo'yicha ma'lumotlar, tajribali ekolog-agroximik, ekolog-entomolog, ekologik-agrobiologik kerak bo'lib, ular ish jarayonida kelib chiqadigan har xil muomolarni yechish borasida ekologik chora-tadbirlarni qo'llab, atrof muhit muxofazasini amlga oshirishlari kerak. Bunday murakkab masalalarni hal qilishda atrof-muhit muxofazasiga oid ekologik ta'lim tarbiya oila, bog'chalar maktablar, o'quv yurtlar oliygohlar va turli korxonalar, tashkilotlar uzluksiz olib borishi kerak. Natijada o'rta oily ma'lumotli mutaxasislar yetishib chiqadi va ular xalq xo'jaligini turli sohalaridagi ko'p qirrali mutaxasislar bilan hamjihatlikda qishloq xo'jaligi, turli yo'nalishdagi og'ir va yengil sanoat korxonalari, transport xo'jaliklarida ekologik tozalikka roiya qilgan holda olib boradilar. Atrof muhit muxofazasi fidokorona amalga oshirish borasida, ekologik, ekoogik ma'lumotli mutaxasislar tayyorlashda hamma oliygohlar keng ko'lamda yangi tayyorlangan rajalari o'quv dasturlari asosida ish olib borishlari kerak. Kelajakda yetishib chiqadigan turli sohadagi ekologlar zamonaviy fanlardan ma'lumot oladilar, fan-texnika yutuqlari bilan tanishadilar. Bog'cha, maktab, korxonalarida ishlab chiqarish tajribasini o'tib, o'zlarining amaliy qobiliyatlarini oshiradilar. Yuqori darajali yosh mutaxasislar bo'lib, tabiat va jamiyat qonunlarini mukammal o'rganib, ularni hayotga tatbiq etib, atrof-muhit muhofazasini ijobiy hal etib, go'zal va ko'rkam tabiat, undagi zilol suv, musaffo havo, toza, tabarruk tuproq, rang barang o'simlik olami boy hayvonot dunyosi bitmas tuganmas yer usti va yer osti boyliklarni kelajak avlodlarga qoldirishga xizmat qiladilar. Xo'jaliklarning ijtimoiy iqtisodiy va ekologik turg'un holda rivojlanishiga asos yaratadilar. Tabiatni sevgan insonlarning har bir qarich yeridan bo'layotgan ijobiy va salbiy o'zgarishlarni sezadi, kuzatadi tabiatga yordam beradi, ya'ni yiqilgan butani tiklaydi, kasal hayvonni davolaydi, iflos suvni tozalashga harakat qiladi, yong'inni o'chiradi va hokazolar. Insonning bunday ijobiy harakatlari uning koinotdagi o'rni va shu yerni muhofaza qilishga qobilligidir. Hozirgi kunda

xo'jalikning turli sohalarini rivojlantirish bilan bir qatorda atrof-muhit muxofazasi va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanishga oid chuqur bilimli, ekologik foydalanishga oid chuqur bilimli, ekologik ma'lumotga ega yoshlarni o'rta olib bilim dargohlariga tayyorlash va tarbiyalash vaqti keldi.

Ekologik ta'limning nazariy asosi atrof-muhit muhofazasiga oid ta'limni bo'g'cha maktab, katta-kichik o'quv yurtlari, oily o'quv yurtlarida ma'lum o'quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashda iborat. Ekologik ta'lim tarbiyaning asosiy vazifa va maqsadlari insonni tabiat bilan va unda sodir bo'layotgan voqealıklar bilan qiziqtirish, inson tabiat o'rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, yechish sabablarini aniqlash, yevhish yo'llari, chora-tadbirlarni toppish yetarli ekologik bilimlarga ega bo'lgan holda atrof-muhit mudofazasini amalga oshirishdir.

Ekologik ta'lim tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat.

1. Jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlari: ular o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rgatish va zamonaviy fikrlay oladigan shaxsni tayyorlash.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini yo'naltirishda turli tabiiy hududlarning ekologik holatiga biladigan va kelajakning ekologik rejasini tuzadigan avlodni tayyorlash.
3. Har bir inson jamiyat va jamiyat ichidagi turli guruhlar, toifalar, sinflarning o'zlari yashab turgan tabiat uning boyliklarini saqlashga xizmat qiladigan yoshlarni yatishtirish.

Shunday ishlarni etibor berish har bir bog'cha bolasi, maktab o'quvchisi va talabalar o'simliklar qurishi, qushning ucholmasligi, adir yoki to'qayning yonishi, suvning befoyda oqishiga befarq bo'lmaydi. Tabiat, uning jonotlariga o'zi ichadigan suvga nisbatan joni achishadi, ahvolni yaxshilash uchun ichki intilish tuyg'usi vujudga keladi. Bu esa insondagi yangi biologic kuchdir.

Ekologik ta'lim tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri jumhuriyatimizda tabiatni saqlash, uning turli boyliklaridan tejamkorlik bilan foydalanish borasida uzluksiz ekologik ta'limni tashkil qilish va shu sohaga oid umumiy ta'limni bog'chadan tortib turli korxonalarning xizmatchilari, rahbarlari orasida olib borishdan iboratdir.

Ekologik ta'lim tarbiyani O'rta va Oliy o'quv yurtlarida olib borish yo'llari Ekologik ta'lim tarbiya oily o'quv yurtlarida yangidan tuzilgan o'quv rejalar maxsus dasturlar va metodik tavsiyalar asosida olib borilishi, bu borada biologic va nobiologic fanlat o'rtasida doimiy uzviy bog'liqlik asosida darslar o'tilib boriladi.

HAYOT FAOLIYAT XAVFSIZLIGI

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUXOFAZASI QISMI

Bitiruv malakaviy ishim “Go’ri Amir maqbarasi rangtasvirda ishlash va o’qitish uslubi” mavzusida bo’lib unda loyihaning arxitekturaviy me’moriy va landshaft dizayn yechimi qarab chiqilgan. Bitiruv malakaviy ishida xavfsizlikni ta’minlash, yong’in va elektr xavfsizligini oshirish, zilzilada va yog’in-sochinlar odamlarni muhofaza qilish chora tadbirlari ko’rib chiqilgan shuning uchun ham birituv malakaviy ishining “Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo’limida biz asosiy e’tiborni har qanday joyda ham istalgan vaqtda ham sodir bo’lish ehtimoli bo’lgan tez-tez yuz beradigan yong’in portlash elektr havfsizligi havo xarakatining keskin sabr va ketishi kuchli qor yoki yomg’ir yog’ishi zilzilada ma’lum talalblar bajarilgan taqdirda evakuatsiya yo’llari deyiladi yuz bergan favqulotda vaziyatlarning turiga bog’liq ravishda harakatlanish manbayida odamlar tasir etish xavf va odamlar oqimining miqdori o’zgarib boradi bu o’zgarish

binolarning mo'ljallanishi odamlar oqimining tarkibi va turiga hamda evakuatsiyaning bosqichiga bog'liq ravishda har xil kechadi.

Loyiha ishlarini bajarishda ranglarni ta'siri.

Bir xillik odamga salbiy ta'sir etib inson organizmi himoyasini va asabni markazlashuvini ishlab chiqarish estetikasini joriy qilish, xonalarni va injenerning ko'zni qamashtirmaydigan rangda bo'yash, yoritish, musiqa, bezash iliqliqning oldini olish ruhiy fiziologik o'ynalish hisoblanadi. Kunchilik ishlab chiqarish binolarni yashil rangda bo'yash maqsadga muvofiq chunki, bu rang ta'sirsiz bo'lib markaziy asam tizimini o'gotishga ham tormozlanisha ham sabab bo'lmaydi. Asabga tormozlanuvchi ta'sir ko'rsatadigan kun va havo rang bo'yoqlar bn zaiflashish kun ajrashadigan kun yoki shovqin hosil qiladigan xonalarni uskunalarini bo'yash maqsadida muvofiq hisoblanadi. Qizil va sariq ranglar ko'zga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ulardan qisqa ishlaydigan ya'ni sozlash va ta'mirlash ishlarini bajarishda vaqtidagina bo'ladigan hollarda foydalanish mumkin.

Biroq xona va uskunalarini bir xil rang bilan bo'yash ta'sir etilmaydi. Chunki bir xillik odamga salbiy ta'sir etib inson organizmi himoyasini va asabni markazlashuvini kamaytiradi. Bo'yoqlarad shuningdek extiyorkorlik maqsadida ham foydalaniladi. Transport vositalari, sexdagi jumraklar va boshqalar uskunalarini tiniq ranglarga bo'yash, ishlab chiqishda shikaslanish xollarini kamayishiga olib keladi. Sex va boshqa joylarni unumli yoritish yorig'likning bir tekis tarqalishi sexni ichki tomonlarini badiiy bezatish chiroyli va qulay ish kiyimi toliqishni tibbit shartsharoitni yaqinlash, ishlab chiqarishda texnik talablarga muvofiq qilish, mehnat unumdorligini oshishi yo'llaridan biri hisoblanadi. Chang, gaz, shovqin va tebranishlar kamaytirish, meyoriy mikroqlik yaratish, bularning hammasi kasbga aloqador va kasbga aloqasi bo'lmagan kasallikning oldini olish uchungina emas, balki ish qobiliyatining yuksak bo'lishi uchun ham zarur shart sharoit hisoblanadi.

O'QUV USLUBIY QISM

MUNDARIJA:

1. Pedagog qanday bo'lishi kerak.
2. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.
3. Dars reja matni.
4. Darsning turi va mazmuni.
5. Darsning borishi.
6. Darsning texnologik jarayoni.
7. Dars o'tish rejasi (80-min lik dars taqvimi).
8. Yillik ish dasturi.

9. O'qituvchining taqvim mavzu rejasi.
10. O'qituvchining shaxsiy ish rejasi.
11. O'qituvchining ma'naviy va ma'rifiy ish rejasi.
12. Dars tahlili.

PEDAGOG QANDAY BO'LISHI KERAK

Pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash to'g'risidagi fandit. Kishilik jamiyati taraqqiy etishi bilan u ham o'sib boradi. Kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan odamlarning mehnat faoliyati protsessida ularning ishlab chiqarish tajribalari mehnat malakalari paydo bo'ldi va ular o'zgarib, orta bordi, ularda turli mehnat qurollarini ishlata bilish ko'nikmalari hosil bo'ladi va bu qurollarni takomillashtirish qobiliyati, nutq va tafakkur o'sib rivojlanib bordi. Keksa avlod mehnat protsessida arttirgan tajribasi asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ham mehnatda ishtirok etishga o'rgatish kerak edi va shunday qildi. Shunday qilib tarbiya kishilik jamiyati praktik ehtiyojining obyektiv zaruriyatidan kelib chiqdi, shu jamiyat bilan birga rivojlana bordi.

Pedagogika termini grekcha ikki so'z "pays", ya'ni bola hamda "egeyp", ya'ni boshlab berish, boshqarish, tarbiyalash degan so'zlardan kelib chiqadi. Tarixdan shunday bo'lib chiqdiki, pedagogika asosan bolalarni, yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan sifatida taraqqiy etdi.

Pedagog ya'ni o'qituvchilik kasbi juda ham murakkab kasblardan biri. Hozirgi zamon o'qituvchisi zimmasiga yosh avlodni jismoniy jihatdan pishiq, ruhan tetik, bilimdon, vatanparvar, mamlakatimizda demokratik jamiyat qurilishning vazifasi yuklangan. Shuning uchun ham u keng ma'lumotli va yuksak madaniyatli kishi bo'lishi lozim. O'qituvchi talabalarni sevish ularga chinakam g'amxo'rlik qilish va ular bilan o'z farzandidek munosabatda bo'lishi kerak. Talabalar mehribon ochiq ko'ngil, o'zini ularga yaqin tutadigan o'qituvchini

sevadigan, har bir ishda unga erishishga harakat qiladilar, hatto shunday hislatlarga ega bo'lgan pedagoglardan ba'zilarini umr bo'yi unutmaydilar.

Kasbiy ta'lim deganda, talabalarning muayyan tipdagi o'quv yurtida (litsey, kollej) o'qish jarayonida egallab olishi lozim bilgan hamda sistemaga solingan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Bu bilim, malaka va ko'nikmalar doirasi eng muhim faktlar, ilmiy tushunchalar, qonun va nazariyalarni dunyoqarash va g'oyalarini hamda estetik normalar va ideallarini talabalarning ko'rsatgan ma'lumotlarini o'rganish ularning ilmiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlarini usullari haqidagi materiallarini, shuningdek malaka va yangi zamonaviy bilimlarni amalda qo'llash va yangi bilimlarni egallashdagi malaka hamda ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy ta'limning tashkiliy formalari Tashkiliy forma deganda o'qituvchining qo'yilgan maqsadiga erishish uchun kellej talabalarinign o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish usluni tushumoq kerak. Kasb ta'limning asosiy tashkiliy formalari sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin.

1. Amaliy mashg'ulot.
2. Amaliy laboratoriya tadqiqoti.
3. Korxona yoki rassomlarning ijod xonalariga ekskursiya qilish.
4. Tadbirkorlik talabalarning ishlab chiqarish va ijodiy brigadasini tuzish.
5. O'quv sexlarida va maxsus ajratilgan uchastkalarida o'quv ishlab chiqarish kombinatlarida o'qitish.
6. O'quv ishlab chiqarish amaliyoti.
7. Mehnat mash'gulotlarini tashkil etishning frontal zveno va individual formalar.

Mehnat sohasidagi amaliy mashg'ulotlar turli tipda bo'lishi, ya'ni yangi texnik texnologik ma'lumotlarni va mehnat jarayonlari o'rganishga bilimlarni mehnat ko'nikmalari va malakalarini mustahkamlashga, control-tekshirish ishlari, korxona va ustaxonalarga ekskursiyalar o'tkazish va hokozolar bag'ishlangan mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. Lekin o'quv ustaxonalarda o'tkaziladi amaliy mashg'ulotlar tiplar xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ularning xammasi quyidagi umumiy talablarni qondirish lozim.

1. Mashg'ulotlarning maqsadi hamda vazifalari aniq va ravshan ifodalangan bo'lishi lozim.
2. Mashg'ulotning strukturasi didaktik jihatdan o'zini oqlagan va o'quv materialining mazmuniga to'liq javob beradigan bo'lish kerak.\
3. Amaliy ishlarning obyektlari to'g'ri tanlanishi ijtimoiy foydali qimmatga ega bo'lishi va o'rganilayotgan mehnat jarayonlari va usullarining talablatiga muvofiq kelishi zarur.
4. Mashg'ulotlarda foydalaniladigan kasbiy ta'lim usullari dars talablarga bilan o'quv materialining mazmuniga to'liq javob berish lozim.

5. O'quv ustaxonalarda mash'gulotlatning tashkiliy uslubiy tuzilishi talabalar bilan kollektiv va individual ish olib borishni nazarda tutish kerak.
6. Mehnat bo'yicha amaliy mash'gulotlarda o'tkaziladigan ta'lim ishlari dars tarbiyaviy harakterga ega bo'lishi, ustoz va shogird ananalariga rioya qilinib, kasbiy ta'lim beruvchi o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini o'zida nomoyon etishi, hamda kollej talabalarga Vatanga muhabbat va ma'naviy ma'rifiy sifatlarni tarkib topdirishga yordam berishi lozim.

Kasbiy ta'limda induviaullashgan topshiriqlardan foydalanish yuqori natijalar beradi. Induviduallashgan shundaki, topshiriqlardan foydalanishi guruh talabalariga berilayotgan har bir talabaning individual xususiyatlarini bilishi va xususiyatlari hisobga olinadi. O'qituvchi guruhdagi har bir talabaning individual xususiyatlarni bilishi va xususiyatlarga asosan topshiriqlar tayyorlash lozim.

1. Talabalarining bilim va ko'nikma xomda malakalarni hisobga oluvchi individual topshiriq.
2. Talabalarining umumiy va maxsus imkoniyatlarini hisobga oluvchi individual topshiriq.
3. O'quv ko'nikmalari darajasini hisobga oluvchi individual topshiriq.
4. Talabalarining bilim olishga qiziqishlarini hisobga oluvchi individual topshiriq.

Kasb hunar ta'lim o'quv yurtlarida umumlashgan, induviduallashgan topshiriqlar tuzish maqsadga muvofiq. Bunda talabaning olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkoniyatlari keng ochiladi. Beriladigan topshiriqlarni tuzishda quyidagilarga amal qilish zarur.

1. Topshiriqni bajarish paytida talabalar tabiatni ko'rgan xodisalarni va o'zida bo'lgan bilimlarni to'la bayon qila olishlari lozim.
2. O'tilgan mavzularni qisman takrorlab uni topshiriq bajarish paytida to'ldirish kerak.'
3. Topshiriq bajarish paytida, talaba bilimni to'la boyitish zarur. Induviduallashgan topshiriqlar talabani fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va qo'shimcha manbalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatadi.

Maxsus fan o'qitunchisi
Sultonmurodova Zubaydaning
4 soatga muljalangan

“Tasdiqlayman”
o'quv ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari

DARS REJA MATNI

Gurux:

Sana:

Darsning tartib soni № _4 soatga muljallangan

Darsning mavzusi: “Rangtasvirda me'moriy obidalar janri”

Darsning maqsadi: Talabalarga rangtasvirda ishlash ketma-ketligini to'shuntirib
ko'rsatish

Talimiy: Ishlab chiqarish talimi jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini
shakllantirish

Tarbiyaviy: Talabalarni kasbiy malakalarini shakllantirishda ustoz - shogird
an'analariga amal qilishni ko'rsatish.

Rivojlantiruvchi: Talabalarga individual usulda topshiriq berib, ularning ijodiy
qobiliyatini o'stirish.

DARSNING TURI

Darsda qo'llaniladigan asosiy usullar
Darsning jihozlari: Ushbu darsga taaluqli bo'lgan asbob uskunalar material, chizmalar.

Darsning mazmuni:

1. Tashkiliy qism: Talabalar bilan salomlashib, jurnaldagi ro'yhat bo'yicha yo'qlama qilib chiqish.
2. O'tgan dars mavzusini so'rab, mustahkamlash va talabalar bilimini baholash.
 - a) rangtasvir tarixini bilasizmi?
 - b) rangtasvir so'zi nimani anglatadi?
 - c) rangtasvirda manzara janri haqida ma'lumot bering?
3. O'tilgan mavzuga yakun yasash.
4. Yangi mavzuni boshi.
5. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javoblar.
6. Uyga vazifa.
7. Darsni yakunlash.

DARSNING BORISHI

REJA:

1. Rangtasvirda manzara ishlash ketma-ketligida talabalarning kasbiy malakalarni shakllantirish.
2. Manzara ishlashda, grafik ishlarni bajarishda, ustoz-shogird ananalari, ustoz va shogirtning o'zaro me'zonlari asosida ish yuritib borishi.
3. Yuqorida o'tilgan dars ketma-ketligi jarayonida talaba tafakkuri va kasbga qiziqishini oshirib, rivojlantirish orqali mavzuga oid rangtasvir uslubida manzara ishlash.
4. Bo'lg'usi manzara eskizini oldindan tayyorlab olingan ramka yuziga tushirish.
5. Tayyor bo'lgan eskizni, guash va emulsiya aralashmasidan tayyorlangan ranglar yordamida, mo'yqalam bilan ranglash.

DARSNING TEXNOLOGIK JARAYONI

“Go’ri Amir me’moriy yodgorliklarini o’rganish va rangtasvirda tasvirlash mavzusida. Amaliy-ekskursiya dars o’tish texnologiyasi”

Mavzu: Go’ri Amir me’moriy yodgorliklarini o’rganish va rangtasvirda tasvirlash.		
O’qituvchi talabalar bilan birga go’ri amir me’moriy obidalar bilan tanishish		
Tanishuvdan so’ng guruh o’qituvchisi tomonidan 3-guruhga bo’linadi (Izoh)		
I guruh	II guruh	III guruh
3 ta guruh me’moriy obidaning 3 tomonidan joylashib rangtasvir ishlashga tayyorgarlik ko’rishadi.		
Talabalar amalda rangtasvir ishlashadi		
a) Bajarilgan ishlar o’qituvchi tomonidan baholanadi. b) Yakuniy xulosa uyga vazifa beriladi		

DARS O'TISH REJASI (160-MINUTLIK DARS TAQVIMOTI)

№	Dars bosqichi	Didaktik jihozlar	Mavmun va unga doir harakat	Usul	Vaqt (min)
1	Tashkiliy qism	Guruh jurnali	Salomlashish, davomat, tarbiyaviy suhbat	Savol javob	5
2	Uy vazifasini tekshirish va baholash	Doska, bajarilgan ish, o'zlashtirish varag'i	a) bajarilgan uy vazifalarini tekshirish. b) O'tilgan dars mavzusini so'rab mustahkamlash c) Bilimlarni mustahkamlash	Nazorat. Taqdimot va munozara. Joriy baholash	5 10 5
3	Mativatsiya	Hayotiy misollar	Mavzu: me'moriy yodgorliklarni o'rganish va rang tasvirda tasvirlash	Amaliy ekskursiya	20
4	Yangi mavzu bayoni	Go'ri Amir yo'riqnomasi	Rangtasvir san'ati texnologiyasini bilasizmi? –savol yordamida “muaamoli vaziyat”	Muammoli vaziyat	5
5	Mavzuni mustahkamlash	Doska, texnologik xarita	Talablarning muammo ustida fikrlashuvi	Mustaqil o'qish	20
6	Gurhlarga bo'lish	Tarqatma materiallar	Muammoni yechishga o'qituvchining ko'magi	Ma'ruza	5
7	Tayyorgarlik ko'rish	Adabiyotlar	Talabalar “Rangtasvir san'ati texnologiyasini” mustaqil o'rganadilar (adbiyotlar yordamida)	Mustaqil ish	10
8	Vazifani bajarish	Maruza (rangtasvir san'ati texnologiyasi haqida)	a) O'qituvchi rangtasvir san'ati texnologiyasi haqida to'liq ma'lumot beradi. b) Talabalar birgalikda muammoni yechgan holda, rangtasvir san'ati texnologiyasi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.	Maruza Taqdimot	95
9	Yakuniy qism	Texnologik xarita	a) Yakuniy xulosa, fikrlarni jamlash. b) Uyga vazifa	Maruza. Mustaqil ish	10

“Tasdiqlayman”

2013 - 2014 o'quv yiliga mo'ljallangan I-bosqich

T/r	Bo’lim va mavzularni nomi	Mashg’ulot raqami	Dars o’tilgan kun	Dars soat	Mashg’u lot tipi va turi	Ko’rgazmali qurollar va texnik vositalar	Mustaqil ish turi. Amaliy laboratoriya tadqiqoti	Uy vazifasi	Adabiy otlar	Fanlar-aro bog’- lanish	Izox
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1	Mutaxassislikka kirish	№1	2.04.13	2	Og’zaki amaliy	Rangtasvir san’atiga oid plakatlar va slaydlar	Rangtasvir san’atiga oid bilim va ko’nikmalarning yozma bayoni				
2	Kirish. Tasviriy san’at asoslari	№2	14.04.13	2	Og’zaki	Rangtasvir asoslarini isbotlab beruvchi plakatlar					
3	Rangtasvir turlari	№3	20.04.13	2	Og’zaki	Rangtasvir turlariga oid rasmlar	Rangtasvir turlarini ish dasturiga yozib borish			Adabiyot tarix	
4	Rangtasvir mazmun va shakl	№4	26.04.13	2	Og’zaki	Rangtasvirda mazmun va shaklga oid bayonmalar va rasmlar		O’qib Kelish		Tarix	
5	Rangtasvir janrlari	№5	2.05.13	2	Og’zaki	Rangtasvir janrlariga oid rasmlar					
6	Rangtasvir san’ati	№6	8.05.13	2	Og’zaki	Rangtasvir san’atiga oid plakatlar	Plakatlarni o’rganish				
7	Rangtasvir san’ati texnologiyasi	№7	14.05.13	2	Og’zaki	Rangtasvirga oid slaydlar	Plakatlarni o’rganish			Rasm	
8	Dars o’tish xonasida xavfsizlik texnikasi va yong’in xavfsiz	№8	20.05.13	2	Og’zaki va amaliy	Xavfsizlik texnikasi va yong’in xavfsizligiga oid plakatlar	Plakatlarni o’rganish			Fizika ximiya	
9	Miniatyura yaratishda ishlatiladigan asbob uskunalarni saqlash qoidalari	№9	26.05.13	2	Og’zaki	Ma’lum usullardan foydalanish					
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
10	Rangtasvir san’atida ishlatiladigan moybo’yoq turlari	№10	1.05.13	2	Og’zaki	Asboblarni tasvirlangan slaydlar	Asboblarni tanlash				

11	Me'moriy obidalar eskizlarini qog'ozga chizish	№11	7.06.13	4	Og'zaki	Eskizlar				Ximiya	
12	Rangtasvir san'ati haqida tushuncha berish	№12	13.06.13	2	Og'zaki	Rangtasvirga oid plakatlar					
13	Rangtasvirda obidalar qalamda so'ng rangda kerakli o'lchamda chizish	№13	19.06.13	4	Amaliy						
14	Me'moriy obidalarni ishlash	№14	25.06.13	4	Amaliy	Mo'yqalam va rangladan foydalanish	Rangshunoslik slaydlar			Chizmachilik	
15	Taqdimot			50							

Tuzuvchi fan o'qituvchisi:

Sultonmurodova Zubayda

Samarqand viloyati Samarqand shahar
San'at kolleji Rangtasvir №____
guruhi murabbiysi
“Tasdiqlayman” kollej ma'naviy va
ma'rifay ishlari bo'yicha director
o'rinbosari

O'qituvchi Sultonmurodova Zubaydaning 2013-2014 o'quv yilida
bajariladigan ma'naviy va ma'rifiy ishlar rejasi

№	Bajariladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Izod
1	Avgust	25.08.13	Murabbiy
	Dars sinfxonasini davlat ramslari: Prezident portreti, davlat gerbi, davlat bayrog'I davlat tilini va prezident asarlari bilan jihozlash		
2	Sentabr	1.09.13	Ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha director o'rinbosari
	1-sentabr O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuniga bag'shlangan tadbirda qatnashish		
3	Sentabr	2.09.13	Direktor o'rinbosari
	Bilim yurtidan kelgan talabalarni, bilim yurtining ichki qonun-qoidalarini bilan tanishtirish		
4	Oktabr	Doimiy	Murabbiy
	Rangtasvirda me'moriy obidalar haqida suhbat		
5	Guruh davomati va o'qish jarayonini tekshirib borish		
6	Oktabr	Doimiy	Tarix o'qituvchisi
	O'zbekiston Respublikasining Davlat ramziy belgilari haqida talabalarga to'liq ma'lumot berish		
7	Dekabr	7.11.13	Murabbiy. Tarix o'qituvchisi
	8-dekabr O'zbekiston Respublikasining "Konstitutsiyasi kuni" mavzusida talabalarga ma'ruza o'qish		
8	Yanvar	25.01.14	Murabbiy
	I-yarim yillik yakuni guruhning umumiy va maxsus fanlardan to'plangan joriy oraliq va yakuniy nazorat rayting ballarini ko'rib chiqib, talabalar bilan birgalikda tahlil qilishi.		

Tuzuvchi fan o'qituvchisi:

Sultonmurodova Zubayda

XULOSA

XULOSA

Hech ikkilanmasdan aytish mumkin san'atga bo'lgan qiziqishim meni aynan shu o'quv dargohininh "Kasbiy ta'lim" fakulteti "San'at" bo'limiga hujjat topshirishimga sabab bo'ldi. Men bunday hech ham pushaymon emasman. Chunki to'rt yillik tahsilim davomida bilmaganlarimni o'rgandim. Ustozlardan san'at sirlarini va ko'nikmalarini bilib oldim.

Albatta buning uchun ustozlardan minnatdorman.

Endi birituv malakaviy ishimga keladigan bo'lsam, yuqorida ta'kidlab o'tganimdek. Go'ri Amir maqbarasi o'zining betakrorligi va go'zal arxitektirasi bilan meni o'ziga jalb qilgan edi. Shu sababli, rahbarim o'qituvchi bilan suhbatlashgan holda, ana shu mavzuni tanlagan edim.

Bitiruv malakaviy ishini talab darajasida bekami ko'st bajarishga baholi qudrat harakat qildim.

Albatta men bajargan ishni baholash xurmatli D. A. K raisi va komissiyasi a'zolari sizlarni hukmingizga havola. So'zimning oxirida, yana bir marta ustozlarimga minnatdorchilik bildiraman va ular qatorida ota-onamga ham chin yurakdan rahmat aytaman.

Ularning menga bildirgan ishonchlarini oqlashga so'z beraman.

ADABIYOTLAR

ADABIYOTLAR

1. “Barkamol avlod O’zbekiston tarqiyotining poydevori” Toshkent 1997-yil.
2. “Pedagogika” o’qituvchi nashriyoti Toshkent 1997-yil.
3. N. Oydinov “Rassom-o’qituvchilar tayyorlash muammolari” Toshkent 1997-yil “O’qituvchi” nashriyoti.

4. X. T. Avliyoqulov “Zamonaviy o’qitish texnologiyalari” Toshkent 2001-yil.
5. G. Smirov A Solovyov “Boshlovchi rassomlarga” Leningrad 1967-yil.
6. S. Abdurasulov N Tolipov N Oripov Rrangtasvir Toshkent “O’zbekiston” nashriyoti.
7. O’zbekiston milliy ensiklopediya.
8. A. Berdimurodov “Go’ri Amir maqbarasi” A. Qodirov nomidagi xalq merosi nashriyoti Toshkent 1996-yil.
9. [www. Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)
10. Ekologiya. Toshkent 2004-yil.
11. Ekologiya asoslari. Zarqalam 2004-y.
12. O. Qudratov Hayotiy faoliyat xavfsizligi. Toshkent “Mehnat” 2004-yil.